



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
geografiya fani o'qituvchisi

_____ning
20__-20__-o'quv yilida 9-sinflar uchun
I chorak geografiya fanidan

DARS

ISHLANMALARI

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Soati	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Jahonning siyosiy xaritasi	1		
2.	Jahon mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi bo‘yicha tasnifi	1		
3.	Mamlakatlarning boshqaruv shakli va davlat tuzilishi	1		
4.	Dunyo tabiiy resurslari. Mineral resurslar geografiyasi	1		
5.	Tugamaydigan va tiklanadigan tabiiy resurslar geografiyasi	1		
6.	Zamonaviy ekologik muammolar. 1-BSB (50 ball)	1		
7.	Jahon aholisining soni, o‘sishi va joylashuvi	1		
8.	Jahon aholisining jinsiy, yosh, irqiy tarkibi			
9.	Dunyo aholisining etnik va diniy tarkibi	1		
10.	Jahon mamlakatlarining urbanizatsiyasi	1		
11.	Amaliy mashg‘ulot. Jahon xo‘jaligi va xalqaro mehnat taqsimoti	1		
12.	Jahon iqtisodiyoti markazlari va xalqaro integratsiya jarayonlari	1		
13.	Jahon energetikasi geografiyasi. 1-CHSB (40 ball)	1		
14.	Fan-texnika inqilobi va ishlab chiqarishning rivojlanishiga innovatsion texnologiyalarning ta’siri	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Jahonning siyosiy xaritasi

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga jahon va uning ayrim qismlariga xos betakror geografik xususiyatlarni ko'rsatib berish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayoni va qonuniyatlari haqida batafsil ma'lumot berish

Tarbiyaviy maqsad: jahon va uning yirik mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga doir zamonaviy bilim berish, mustaqil bilim olishga va uni amaliyotda qo'llashga o'rgatish.

Yer yuzasining katta qismlari qanday qilib tasvirlanishini va ulardan qanday foydalanish mumkinligini, yer yuzining tabiati, aholisi, uning xo'jaligini, insonning tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish masalalarini tushuntirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: jahonning siyosiy xaritasi, tabiiy resurslari, aholisi va xo'jaligi haqidagi umumiy ilmiy tasavvurni shakllantirish, jahonning yirik mintaqalari - Yevropa, Osiyo, Afrika, Amerika va Avstraliyaning siyosiy xaritasi, tabiiy resurslari, aholisi va iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib berish

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

o'zining mustaqil fikrini og'zaki va yozma tarzda ifoda eta olish, o'z g'oyalarini taqdim va himoya qila olish, guruhlarda ijodiy tarzda ishlay olish. Dunyoning yirik shaharlari va ular haqida xorijiy tillarda ma'lumot bera olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: :

geografik adabiyotlardan samarali foydalana olish, ular asosida mavzuli axborotlarni tayyorlay olish, ommaviy axborot vositalari hamda Internet-saytlardan geografik mazmunga ega bo'lgan ma'lumotlarni topa olish va ularni tahlil qila olish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, interfaol.

Dars jihozi: tarqatma materiallar, darlik, tarsviriy san'at turlariga doir ko'rgazmalar, rasmlar, qalamlar, rasm daftari.

Texnik jihozlar: proyektor, kompyuter, multimedia, slaydlar.

Darsning metodi: og'zaki, suhbat, amaliy va savol-javob.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish, uy vazifasini bajarilishini ko'zdan kechirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Jahonning siyosiy xaritasida, 2018-yil holatiga ko'ra, dunyoda 240 dan ortiq mamlakat bo'lib, shundan jahon hamjamiyati tomonidan mustaqilligi rasman tan olingan 194 ta suveren davlatlar mavjud.

Bulardan 193 tasi BMTning faoliyatida a'zo davlatlar sifatida, 1 tasi (Vatikan) esa kuzatuvchi-davlat bo'lib ishtirok etmoqda. Davlatlar bir-biridan turli xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bunday

maxim jihatlaridan biri hududning kattaligi hisoblanadi. Jahondagi 20 ta mustaqil davlatning maydoni 1

mln km² dan katta bo'lib, jumladan 12 tasining hududi 2 mln km² dan, 6 tasining maydoni 5 mln km² dan kattadir. Shu bilan birga dunyodagi davlatlar orasida bir guruh hududiy jihatidan mayda, yoki "mitti" davlatlar ham o'ziga e'tibor tortadi (1-jadvalga qarang). Jahonning siyosiy xaritasida maydoni 1 ming km² ga yetmaydigan 24 ta mustaqil davlat bor. Bunday davlatlar turli qit'alarda, xususan Yevropada (Vatikan, Monako, San-Marino, Lixtenshteyn va boshqalar), Osiyoda (Maldiv Respublikasi, Singapur, Bahrayn), Amerikada (Sent-Kits va Nevis, Grenada, Barbados va boshqalar), Okeaniyada (Nauru, Tuvalu, Marshall orollari va boshqalar) joylashgan. Davlatlar geografik o'rni nuqtayi nazaridan, birinchi navbatda, dengizga chiqish imkoniyatiga ega hamda bunday imkoniyati y o'q davlatlarga bo'linadi. Dengizga chiqish imkoniyati bor davlatlar orasida esa orol, yarimorol va dengizbo'yi kontinental davlatlar ajratiladi. Orol davlatlar qatoriga Indoneziya, Filippin, Yaponiya, Shri-Lanka kabi Osiyo, Buyuk Britaniya, Irlandiya, Islandiya singari Yevropa, Madagaskar, Kabo-Verde, Komor orollari kabi Afrika, Kuba, Gaiti, Yamayka singari Amerika davlatlari hamda Okeaniyadagi Papua-Yangi Gvineya, Yangi Zelandiya, Fiji va boshqalar kiradi. Saudiya Arabistoni, Ispaniya, Italiya, Norvegiya, Koreya Respublikasi, Vyetnam kabi davlatlarni esa yarimorol davlatlariga misol qilib tariqasida keltirish mumkin. Dengizbo'yi continental davlatlar esa materiklarning asosiy qismida joylashgan bo'lib, dengizga chiqish y o'llariga ega. Bunday davlatlar dunyoda ko'p (Fransiya, Germaniya, Polsha, Xitoy, Misr, AQSH va h.k.).

Jahonning 10 ta eng yirik va 10 ta eng kichik davlatlari

№	Davlatlar	Hududi (mln. km ²)	№	Davlatlar	Hududi (km ²)
1	Rossiya	17,1	185	Malta	316
2	Kanada	10,0	186	Maldiv Respublikasi	298
3	Xitoy	9,6	187	Sent-Kits va Nevis	261
4	Amerika Qo'shma Shtatlari	9,5	188	Marshall orollari	181
5	Braziliya	8,5	189	Lixtenshteyn	160
6	Avstraliya	7,7	190	San-Marino	61
7	Hindiston	3,3	191	Tuvalu	26
8	Argentina	2,8	192	Nauru	21
9	Qozog'iston	2,7	193	Monako	2
10	Jazoir	2,4	194	Vatikan	0,44

1993-yil 1-yanvardan Chexoslovakiya davlati o'rnida Chexiya va Slovakiya mustaqil respublikalari barpo bo'ldi. Jahon siyosiy xaritasidagi bu o'zgarishlar xalqaro sotsialistik tuzumining barham topishi bilan bog'liq. Shuningdek, ushbu jarayon bilan bog'liq ravishda 1990-yilda Yevropada ikki nemis davlati (Germaniya Federativ Respublikasi va Germaniya Demokratik Respublikasi) qo'shilishi natijasida yagona Germaniya Federativ Respublikasi, Osiyoda esa Yaman Arab Respublikasi va Yaman Xalq Demokratik Respublikasi birlashishi hisobiga yagona Yaman Respublikasi tashkil etildi. Boshqa siyosiy jarayonlar ta'sirida ham jahonning siyosiy xaritasida yangi suveren davlatlar paydo bo'lishi davom etdi. Afrikada 1993-yilda ko'p yillik urush natijasida Eritreya Efiopiya tarkibidan ajralib, suveren davlat maqomiga ega bo'ldi. Okeaniyada 1994-yilda Palau davlati AQSHning nazorati ostidagi hududdan mustaqil davlatga aylandi. Janubi-sharqiy Osiyoda 2002-yilda Sharqiy Timor mustaqil davlatlar qatorini to'ldirdi. Afrika qit'asida 2011-yil 9-iyulda referendum natijalariga ko'ra, Sudan tarkibidan Janubiy Sudan davlati ajralib chiqdi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Jahonning siyosiy xaritasidagi XX va XXI asrlar davomida ro'y bergan o'zgarishlar asosan qanday tarixiy voqea va jarayonlar bilan bog'liq bo'ldi?
2. Sovet Ittifoqi parchalanishi natijasida qaysi davlatlar mustaqillikka erishdi?

V. Darsni yakunlash: o'quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Atlasdagi jahonning siyosiy xaritasi yordamida bitta katta orolda hamda yirik orollar guruhlarida joylashgan davlatlarni aniqlang.

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Jahon mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi bo'yicha tasnifi

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga jahon va uning ayrim qismlariga xos betakror geografik xususiyatlarni ko'rsatib berish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayoni va qonuniyatlari haqida batafsil ma'lumot berish

Tarbiyaviy maqsad: jahon va uning yirik mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga doir zamonaviy bilim berish, mustaqil bilim olishga va uni amaliyotda qo'llashga o'rgatish.

Yer yuzasining katta qismlari qanday qilib tasvirlanishini va ulardan qanday foydalanish mumkinligini, yer yuzining tabiati, aholisi, uning xo'jaligini, insonning tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish masalalarini tushuntirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: jahonning siyosiy xaritasi, tabiiy resurslari, aholisi va xo'jaligi haqidagi umumiy ilmiy tasavvurni shakllantirish, jahonning yirik mintaqalari - Yevropa, Osiyo, Afrika, Amerika va Avstraliyaning siyosiy xaritasi, tabiiy resurslari, aholisi va iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib berish

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarida, geografik manbalar bilan mustaqil tarzda ishlay olish, o'zining iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ekologik dunyoqarash va tafakkurini mustaqil ravishda o'stirib borish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

dolzarb global, regional va mahalliy muammolarni tahlil qilish, ularning yechimiga oid ijodiy takliflarni ishlab chiqish, zamon va jamiyat talabidagi iqtisodiy, siyosiy va ekologik faollikka intilish va ahamiyatini anglash.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, interfaol.

Dars jihozi: tarqatma materiallar, darlik, tarsviriy san'at turlariga doir ko'rgazmalar, rasmlar, qalamlar, rasm daftari.

Texnik jihozlar: proyektor, kompyuter, multimedia, slaydlar.

Darsning metodi: og'zaki, suhbat, amaliy va savol-javob.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish, uy vazifasini bajarilishini ko'zdan kechirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Jahon mamlakatlarining eng muhim belgilaridan biri - ularning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanish darajasidir. Davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligini baholash uchun bir qancha mezonlar qo'llaniladi. Bu mezonlardan asosiylari:

yalpi ichki mahsulot (YIM)ning umumiy va aholi jon boshiga nisbatan hajmi;
milliy iqtisodiyotning tarmoqlar tarkibi;

eksportning tovar tarkibi hamda mamlakatning xalqaro ixtisoslashuvi;
turli ko'rsatkichlar bilan belgilanadigan aholining turmush darajasi.

Jahon mamlakatlari ushbu mezonlar asosida BMT tomonidan 3 ta yirik blokka bo'linadi: *rivojlangan*, *rivojlanayotgan* va *o'tish iqtisodiyotidagi* mamlakatlar.

Rivojlangan mamlakatlar qatoriga, odatda Yevropadagi ko'plab davlatlar (Sharqiy Yevropadan tashqari), AQSH, Kanada, Yaponiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Isroil va Janubiy Afrika Respublikasi kabi davlatlar kiritiladi. Shu bilan birga oxirgi yillarda Koreya Respublikasi va Singapur ham rivojlangan mamlakatlar sifatida e'tirof etilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar YIMning aholi jon boshiga hajmi 25 000 AQSH dollaridan ortiq, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan qayta ishlash sanoatining yuqori darajada rivojlanganligi, eksport tarkibida tayyor mahsulotlar yetakchilik qilishi, aholining salomatlik va ma'lumotlilik darajasi yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Rivojlangan mamlakatlar orasida ulkan iqtisodiy salohiyati va ishlab chiqarish hajmi bilan "*Katta yettilik*" guruhini tashkil etuvchi davlatlar alohida ajralib turadi. Ushbu guruhga AQSH, Kanada, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya hamda Italiya kiradi. Bu mamlakatlar xalqaro iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tizimida muhim o'rin tutadilar. Yevropadagi Avstriya, Belgiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Norvegiya, Shvetsiya, Finlandiya, Shveysariya va boshqa bir qator "*Katta yettilik*"ga kirmaydigan davlatlar *kichik rivojlangan davlatlar* guruhini tashkil qiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tizimi turli davrlarda Yevropadan ko'chib kelgan aholi tomonidan shakllantirilgan va hozirgi kunda rivojlanishning yuqori ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadigan Avstraliya, Yangi Zelandiya, Isroil, JAR singari davlatlar "*ko'chirilgan*" kapitalizm mamlakatlari guruhini sifatida ajratiladi. Osiyo, Afrika, Amerika hamda Okeaniyaning aksariyat davlatlari rivojlanayotgan mamlakatlar blokiga kiritiladi. Jahon aholisining eng katta qismi (2018-yil ma'lumotlariga ko'ra, 6 mlrd kishi) yashaydigan bu davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va xususiyatlari bilan bir-biridan ancha farq qiladilar. Shuning uchun ham rivojlanayotgan mamlakatlar bir nechta guruhlariga bo'linadi. Jumladan, ulkan tabiiy-resurs, demografik va iqtisodiy salohiyatga ega Xitoy, Hindiston, Braziliya va Meksika *tayanch rivojlanayotgan mamlakatlar* guruhini tashkil qiladi. Saudiya Arabistoni, BAA, Kuvayt, Bahrayn, Ummon, Bruney davlatlari *neftni eksport qiluvchi mamlakatlar* guruhidir. Qatar tabiiy gaz qazib oluvchi va eksport qiluvchi mamlakat. Bu mamlakatlarda YIMning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan hajmi ancha yuqori (masalan, 2017-yil holatiga ko'ra, Qatar bu ko'rsatkich bo'yicha jahonda 1-o'rinni egallagan - 124 740 AQSH doll.), lekin ularning iqtisodiyoti xomashyo resurslariga asoslanganligi sababli, bu davlatlar rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiritilmaydi. Tabiiy resurslarning xilma-xil va katta zaxiralariga, ulkan aholi va mehnat resurslari salohiyati, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarida yuqori natijalarga erishayotgan Turkiya, Eron, Pokiston, Indoneziya, Argentina va boshqa davlatlardan iborat *yirik industrial-agrar mamlakatlar* guruhini shakllanmoqda. Karib dengizi va Okeaniyadagi ayrim orol mamlakatlar *xalqaro turizmga ixtisoslashgan* bo'lib, aholi turmush darajasining nisbatan yuqori ko'rsatkichlari bilan ajralib turuvchi rivojlanayotgan mamlakatlarning alohida guruhini tashkil etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar ichida eng og'ir ijtimoiy-iqtisodiy holat *eng sust rivojlangan mamlakatlar* guruhiga xos. Bu guruh tarkibiga BMT tomonidan hozirgi vaqtda 48 ta davlat kiritilgan bo'lib, ularning 34 tasi Afrikada, 9 tasi Osiyoda, 4 tasi Okeaniyada, 1 tasi Amerikada joylashgan. Sobiq Ittifoq respublikalari, 1990-yillargacha sotsialistik tuzum asosida rivojlangan, keyinchalik esa undan voz kechgan Sharqiy Yevropa davlatlari (Polsha, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Bolgariya va b.) hamda Mongoliya BMT tomonidan alohida *o'tish iqtisodiyotidagi davlatlar* blokiga birlashtiriladi. O'zbekiston ham o'tish iqtisodiyotidagi davlatlardan biri hisoblanadi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Jahon mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi qanday mezonlar asosida baholanadi?
2. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarning qanday guruhlariga ajratiladi?

V. Darsni yakunlash: o'quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: "Katta yettilik" davlatlari, "ko'chirilgan" kapitalizm mamlakatlari hamda tayanch rivojlanayotgan mamlakatlar va ularning poytaxtlarini yozuvsiz xaritada belgilang.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

39 listdan iborat geografiya fanidan 9-sinf I chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyeu Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**